

## UMUMTA'LIM MAKTABI DIREKTOR O'RINBOSARLARINING MIDIERGONOMIK BILIMI VA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USLUBLARI

***Eraliyev Xalimjon Alimbekovich***

*Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida mudiri dotsent.*

[eraliyev2020@gmail.com](mailto:eraliyev2020@gmail.com). tel: +99897 251-81-91

***Murodov Sirojiddin Bohodir o'g'li***

*Akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo'limi yetakchi mutaxassisi.*

[murodovsirojiddin551@gmail.com](mailto:murodovsirojiddin551@gmail.com) tel: +99894 200-22-91

***Annotatsiya:*** Umumta'lim maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining midiergonomik madaniyatini rivojlantirish va hozirgi zamon maktab rahbarining midiergonomik madaniyatini rivojlantirishda ergonomik bilim, ko'nikma va malakalarning dolzabligi asoslangan. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining midiergonomik madaniyatini rivojlantirish jarayoni mazmuni va amalga oshirish texnologik tizimi tarkibiga kiruvchi komponentlarni taqdim etilgan.

***Tayanch so'z va tushunchalar:*** ergonomik yondashuv, midiergonomik madaniyat, ergonomik ta'lim muhiti, texnologik tizim.

## МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕДИОЭРГОНОМИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ И КУЛЬТУРЫ ЗАМЕСТИТЕЛЕЙ ДИРЕКТОРОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

***Аннотация:*** Развитие медиэргонимической культуры заместителей директоров по учебной работе общеобразовательной школы и развитие медиэргонимической культуры современного руководителя школы основано на потребности в эргонимических знаниях, умениях и квалификациях. Представлено содержание процесса развития медиэргонимической культуры заместителей директора по учебной работе и компоненты, входящие в технологическую систему внедрения.

***Ключевые слова и понятия:*** эргонимический подход, эргонимическая культура, эргонимическая образовательная среда, технологическая система.

## METHODS OF FORMING THE MEDI-ERGONOMIC KNOWLEDGE AND CULTURE OF DEPUTY DIRECTORS OF GENERAL EDUCATION SCHOOLS

***Abstract:*** The development of the mid-ergonomic culture of deputy directors for educational work of a general education school and the development of the mid-ergonomic culture of a modern school leader is based on the need for ergonomic knowledge, skills and qualifications. The content of the process of development of the midiergonomik culture of deputy directors for academic work and the components included in the technological implementation system are presented.

***Key words and concepts:** ergonomic approach, ergonomic culture, ergonomic educational environment, technological system.*

## KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan umumta'lim maktabi kechagi maktab emas. Istiqloqlarning chorak asri davomida bizda tub mohiyati bilan butunlay boshqa, avvalombor, o'z ta'lim-tarbiya modelini yaratgan, qolaversa, jahonning eng ilg'or pedagogik tajribalaridan andoza olayotgan umumta'lim maktablari tizimi shakllandi. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalar barcha sohalar qatori ta'limga ham dadil kirib kelmoqda. Ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator samarali hamda o'ziga xos yangi ta'lim innovatsiyalari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etilmoqda, shuningdek, qulay ta'lim jarayonini tashkil etish, bunda ilmiy tadqiqotlar, ta'lim hamda fanning innovatsion faolligini oshirishga xizmat qiluvchi sharoitlar yaratilmoqda. Ta'limning asosiy vazifalarini, mavjud ilmiy salohiyat va alohida shaxslarning iste'dodini uning tuzilmalari hamda sharoitlarining amaldagi ehtiyojlariga moslashtirish juda muhim hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish borasida midiergonomika talablariga asosan oqilona faoliyat yuritishlari, ta'lim muassassining xaqiqiy egasi bo'lish, boshqaruvning barcha jabhalarini mukammal egallash, o'z lavozim vazifalariga nisbatan o'ta mas'uliyatli bo'lish, ta'lim jarayoni xavfsizligi va qulayligini ta'minlay olish, o'quv ishlarini loyixalash va rejalashtirish, o'quv muhiti va mehnat gigienasi talablariga o'z faoliyatida to'la rioya qilish sifatlarining ularda mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlaridan kasbiy kompetentligi, midiergonomik madaniyat, tashabbuskorligi, shaxsiy sifatleri, boshqaruv ko'nikmalari va tajribasi, tizimli tahlil va qaror qabul qilish malakasi, lavozim vazifalarni, eng avvalo, davlat siyosati talablaridan kelib chiqqan holda bajarishning maqbul, samarali yo'llarini amalga oshirish talab etiladi.

## METODOLOGIYA

Xozirgi zamon o'qituvchisi o'tgan asrdagi o'qituvchidan tubdan farq qiladi. Avvallari o'qituvchi uchun sinf xonasi, sinf taxtasi va bo'r, partalar ya'ni o'quvchilar ish o'rni bo'lishi kifoya edi. Xozirgi zamonda esa umumta'lim maktablarining faoliyatini moddiy texnik bazasi, ta'lim vositalarining turli tuman ko'rinishlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ushbu moddiy texnik baza va ta'lim vositalari pedagogik va ergonomik talablar, meyoriy xujjatlar asosida ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan.

O'quvchi shaxsining kamol topishiga, muayyan umumta'lim va politexnik bilim, malaka, ko'nikmalarini shakllanishiga xizmat qilish uchun ta'lim vositalarining yaroqliligi masalasi pedagogik va ergonomik talablar orqali belgilanadi. Shuningdek, ta'lim vositalariga qo'yiladigan ergonomik talablar ushbu vositalardan foydalanish jarayonida namoyon bo'luvchi insonning antropometrik, fiziologik, psixofiziologik va psixologik xususiyatlarini e'tiborga oladi.

Shunday ekan midiergonomika bugungi kundagi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari faoliyatidagi o'rni deyarli o'rganilmagan, fikrimizcha buning asosiy sabablaridan biri direktor o'rinbosarlariga midiergonomik bilim berilmasligidir. Shuning uchun o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari midiergonomik bilimi va madaniyatini takomillashtirish zaruriyati dolzarb muammo bo'lib, bu muammoni yechimini topish esa pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida tinglovchilarga midiergonomika mavzulari orqali ergonomik tayyorgarlik berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### TAHLILLAR VA MUHOKAMA

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari midiergonomik bilimi va madaniyatini tashkil etuvchi eng asosiy yetakchi omillar o'quv ishlarini loyixalash va rejalashtirish, o'quv muhiti va mehnat gigienasi talablariga o'z faoliyatida to'la rioya qilish sifatlarining ularda mavjudligini ta'minlovchi bilim, malaka, fikrlash va yo'nalغانlik hisoblanadi. Agar direktor o'rinbosarida midiergonomik madaniyat shakllangan bo'lsa, demak, u hozirgi zamon maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonlari ob'ektlarini(natural ob'ektlar; modellar; o'quv asboblari va jixozlari; tasvirli-ovozli ta'lim vositalari; ta'limning bosma vositalari; dastgoxlar, asobolar, uskunalar; hisoblash texnikasi vositalari; elektron maktab darsliklari; interer, o'quvchi va o'qituvchi ish o'rni; yoritilganlik; xavfsiz va qulay isitilganlik; maktab mebeli; faoliyatni rejalashtirish; dars jadvali va shu kabilarni loyixalashtirish) ergonomik talablar asosida tashkillashtirish va ushbu talablarga og'ishmasdan amal qilishni o'z faoliyatida amaliyotga joriy eta oladi, ya'ni:

- Maktabda o'quvchilar shaxsini kamol toptirishda xavfsiz va qulay ish o'rinlari va ta'lim muxiti sharoitini yaratadi.
- O'qituvchining o'z ish o'rnida xavfsiz va kulay ta'lim muxiti sharoitida o'zining kasbiy vazifalarini samarali bajaradi.
- Salomatlikni saqlash, texnologik va o'quv uskunalar bilan jixozlanishga qo'yiladigan ergonomik talablarga og'ishmay amal qilishi natijasida fan kabinetlari va maktab faoliyatini qulay va xavfsiz sharoitlarda yuritilishini ta'minlaydi.

Xar bir o'quv xonalarining moddiy texnik bazasi, ta'limning texnik vositalari va jixozlaridan foydalanish, o'qituvchi va o'quvchilarning mashg'ulotlarni o'tkazish va bilim olish jarayonlarini xavfsiz va qulay pedagogik hamda midiergonomik talablar asosida tashkil etish o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosaridan kasbiy faollik va midiergonomik madaniyatni talab etadi.

Kasbiy faollik - ta'limning me'yoriy-xukukiy xujjatlari, boshkaruv maxorati, midiergonomika asoslarini, ish yuritish tizimi, ta'lim jarayonida va boshkaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, kasbiy kompetentligi, chet tillarini bilishda ifodalanadi.

Kasbiy faollik darajasi - kasbiy malaka darajasi, tegishli funksional vazifalar buyicha ish tajribasi, kasb soxasiga muvofikligi, egallab turgan lavozimi buyicha funksional vazifalarni bilishi, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashuv darajasi, xolislik, oshkoralik, shaxsiy va kasbiy kompetentlik darajalari, amaliy tajribasi, boshkaruv maxoratlari mavjudligi, ta'lim vositalari va moddiy texnik bazasiga qo'yiladigan maxsus midiergonomik talablarning bilishi, kasbiy madaniyati, mas'uliyatligi, jamoadagi mavkei va shu kabi bir qator sifatlar orqali belgilanadi.

Kasbiy kompetentlik, midiergonomik madaniyat, tashabbuskorlik, shaxsiy pedagogik sifatlar, o'quvchilar bilim olish jarayonlarini boshkarish kunikmalari va tajribasi, tizimli taxlil va karor kabul kilish malakasi, lavozim vazifalarni, eng avvalo, davlat siyosati talablaridan kelib chikkan holda bajarishning makbul, samarali yullarini amalga oshirish kobiliyatlarining raxbar va pedagoglarda mavjudligi ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Midiergonomik madaniyat – bu umumlashirilgan faoliyat bo'lib, ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari faoliyatida ijobiy natijalarga erishish, pedagogik jarayonlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim muassasasi ichki faoliyatining maqsadini tizimli rejalashtirishda o'quv ishlarini loyixalash va rejalashtirish, o'quv muhiti va mehnat gigienasi talablariga o'z faoliyatida rioya qilish, interfeys tarmog'i dasturiy maxsulotlarini loyixalash va amalga oshirishida zarur hisoblanadi.

Umumiy holda, pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining midiergonomik madaniyatini takomillashtirishga ob'ektiv va sub'ektiv omillar sabab bo'ladi. Ob'ektiv omillarga davlatning yangi ta'lim siyosati, ta'lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazining innovatsion faoliyat yo'nalishidagi tajribalarini keltirishimiz mumkin.

Sub'ektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj, pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatining rivojlanish jarayoni, tinglovchilarning midiergonomik bilim, ko'nikma va malakalarga extiyoji, ilmiy salohiyatining rivojlanishi, ta'lim muassasasi salohiyatining o'sishi, ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqaruv xususiyatlarining o'zgarishi misol bo'ladi.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bevosita ta'lim tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ta'limni yangilash uni demokratlashtirilishi, ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvini, o'qituvchi va o'quvchilarnig ish o'rinlariga moslashuvlariga asoslangan ta'lim jarayoni xavfsizligi va qulayligini ta'minlash va amalga oshirishini integrativ jarayonlarni kuchaytirish, ta'limning ishlab chiqarish bilan aloqasini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayonlar ijtimoiy-madaniy vaziyatlarning ob'ektiv o'zgarishlari bilan bog'liq holda, pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida, midiergonomika talablarini o'zlashtirgan, midiergonomik madaniyati rivojlangan malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini belgilaydi.

Ta'lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondoshuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta'minlash, midiergonomika talablari asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarining vazifalari, pedagog-xodimlarning midiergonomik malakasini uzluksiz oshirishga tizimli yondashuv, tinglovchilar bilan midiergonomika bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va boshqarish, midiergonomika tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va boshqarishning nazariy uslubiy asoslari, tinglovchilar guruxi faoliyatini ergonomik talablar asosida tashkil etish va boshqarish, tinglovchilar kasbiy faolligini oshirishda pedagoglarning vazifalari, pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida tinglovchilar midiergonomik tayyorgarligi mazmuni, midiergonomika talablari bo'yicha professor-o'qituvchi va xodimlar resurslarini loyixalash, ta'lim muassasasida o'quv ishlarini loyixalash va rejalashtirish, o'quv muhiti va mehnat gigienasi talablariga o'z faoliyatida to'la rioya qilishga doir vazifalarni xal etish zarur hisoblanadi.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ta'lim tizimini takomillashtirish yo'nalishida amaliyotga tatbiq etilayotgan yangiliklar "Malaka oshirish jarayonida o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari midiergonomik madaniyatini takomillashtirish"ni ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bular o'z navbatida, ta'lim muassasasi rahbarlari va o'qituvchilari pedagogik jarayonlarni midiergonomik talablar asosida tashkil etish va

boshqarish yo'nalishidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, mazkur jarayon ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlaridagi qarorlarni qabul qilishda mavjud vaziyatlarni, sub'ektlarning moyilligi, ehtiyoji va qiziqishini o'rganishlari zarurligini taqozo etadi.

Hozirgi kunda esa ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida midierganomika talablarini o'zlashtirgan, ergonomik madaniyati rivojlangan malakali mutaxassislar zarurligi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Direktor o'rinbosarlarining midiergonomik madaniyatini tashkil etuvchi eng asosiy yetakchi omillar o'quv ishlarini loyihalash va rejalashtirish, o'quv muhiti va mehnat gigienasi talablariga o'z faoliyatida to'la rioya qilish sifatlarining ularda mavjudligini ta'minlovchi bilim, malaka, fikrlash va yo'nalganlik hisoblanadi. Agar direktor o'rinbosarida midiergonomik madaniyat shakllangan bo'lsa, demak, u hozirgi zamon maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonlari ob'ektlarini ergonomik talablar asosida tashkillashtirish va ushbu talablarga og'ishmasdan amaliyotga joriy eta oladi.

### XULOSA

Xulosalarga tayangan holda, taklif va fikrlarni aytib o'tish mumkin:

- pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida malaka oshirayotgan umumta'lim maktablari o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarini midiergonomik faoliyatga samarali tayyorlash uchun ular o'rganadigan o'quv dastur va rejalarini hamda modullari tarkibini pedagogik ergonomika asosidagi midiergonomika mavzulari bilan to'ldirib o'quv mashg'ulotlarni tashkil etish va ularning midiergonomik bilimi va madaniyatini tizimli takomillashtirib borish zarur.
- pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari tinglovchilarining midiergonomik madaniyatini muntazam rivojlantirib borish(ularning kasbiy kompetentligi va mahoratini yuksalib borishiga xizmat qiladi xamda xavfsiz va qulay ta'lim muhitini yaratish, o'quvchining qadr-qimmatini, uning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, sifatli ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish)ni ta'minlovchi maxsus o'quv dastur va rejalarini hamda modullari joriy etilishi, shuningdek bu bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev S.X. O'qituvchilarning ergonomik madaniyatini rivojlantirish muhitini tashkil etish tizimi va texnologiyasi // Zamonaviy ta'lim. Toshkent, 2021. 9-son. B.28- 36.

2. Abdullaev S.X. Texnologik ta'lim o'qituvchilarining ergonomik kompetentligi // Monografiya. – GlobeEdit is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group str. A. Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republik of Moldova Europe Printed at: see last page, 2022, ISBN:978-620-2-48669-9.
3. Okulova L.P. Pedagogicheskaya ergonomika: monografiya. – M. Ijevsk: Institut kompyuternyx issledovaniy, 2011. – 200 s.
4. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligi oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi madaniyat va sport ishlari vazirligi. Ta'lim muassasalaridagi mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi, sport anjomlari va boshqa inventarlardan samarali foydalanish hamda ularni saqlash to'g'risida y o' r i q n o m a (qo'llanma). Toshkent – 2010.